



BIOLOGIYANI O'QITISHDA STEAM YONDASHUVINING ART (SAN'AT) YO'NALISHINI TASHKIL ETISH.

Hasanboy Qahramonjon o'g'li Ne'matov

Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi

nematovhasanboy96@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8068735>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 16-June 2023 yil

Ma'qullandi: 18-June 2023 yil

Nashr qilindi: 22-June 2023 yil

KEY WORDS

STEAM, art, jumanji, metod, estetik tafakkur, estetik talab, san'at, biologiya, televedeniya, sistematika.

ABSTRACT

Hozirgi axborot asrida o'quvchilarni dars jarayoniga jalb qilish birmuncha qiyinchiliklar bilan amalga oshirilmoqda. Ayniqsa boshlang'ich sinflarni endigina yuqori sinfga o'tib yangi ma'lumotlarni o'zlashtirishi birmuncha qiyinlashmoqda.

Ushbu maqolada hozirda tabiiy fanlarni o'qitish uchun kiritilgan usul-STEAM yondashuvining bir tarmog'i Art ya'ni san'at yo'nalishi asosida tayyorlangan. San'at bilan biologiya fanlarini bog'lagan holda dars jarayonini tashkil etish, san'at bilan bog'lagan holda turli xil metodlar bo'yicha qisman ma'lumot berib o'tilgan.

San'at-ijtimoiy ong va inson faoliyatining o'ziga xos shakli. San'at qadimiy tarixga ega bo'lib, u jamiyat taraqqiyotining ilk bosqichlarida mehnat jarayoni bilan, kishilar ijtimoiy faoliyatining rivojlanishi bilan bog'liq holda vujudga kela boshlagan.

San'at odamlarning estetik talablarini qodirish bilan birga, o'z taraqqiyotining turli davrlarida jamiyat a'zolarini ma'lum ruxda tarbiyalash, ularni aqliy va hissiy jihatdan rivojlantirish vositasi sifatida xizmat qilib kelgan, ularning turli maqsad, his-tuyg'u, manfaat, idealarni ifoda etgan. San'at ijtimoiy ongning boshqa shakllaridan o'zining predmeti, mazmuni, voqelikni ifoda etish usuli va uslubi, ijtimoiy hayotda tutgan o'rni hamda vazifalari jihatidan farq qiladi.

San'at insonning moddiy va ma'naviy faoliyatidagi bilimi, tajribasi, mahorati va qobiliyatlarini namoyon etuvchi badiiy ijodiyot mahsulidir. Estetik tafakkur tarixida san'at narsa va hodisalarni qanday bo'lsa shunday aks ettirish va hayotni go'zallik qonunlari asosida badiiy ifodalash g'oyalari sari yuksalib bordi. Tabiat, jamiyat va insonning ijtimoiy, ma'naviy, milliy dunyosi san'at predmeti hisoblanadi. Voqelik qaysi shaklda badiiy ifoda etilmasin, ijodkor unga ma'lum ijtimoiy-estetik ideal nuqtayi nazardan munosabat bildiradi va o'z estetik bahosini beradi.

San'atning bir qancha tarmoqlari mavjud. Tasviriy san'at, haykaltaroshlik san'ati, turli xildagi qo'l mehnatlari va boshqalar shular jumlasidandir. Ushbu san'atning har bir tarmog'ining tayyorlanishi bo'yicha bir qancha jihatlar mavjud.

STEAM yondashuvining art ya'ni san'at yo'nalishi tabiiy fanlarni san'atning bir qancha tarmoqlari bilan birgalikda birmuncha mukammalroq o'rganishga ko'maklashadi. Jumladan, barchamizga

ma'lumki maktab sharoitida bir qancha amaliy jarayonlarni amalga oshirib bo'lmaydi. Masalan, o'quvchilarda o'rganilayotgan ob'ektga nisbatan fikr uyg'onishi uchun uning haqiqiy holatini tabiiy ravishda ko'rsata olmasligimiz mumkin. Shuning uchun dars jarayonida modellardan, maketlardan hamda rasmlardan foydalanishimiz mumkin. Oddiygina misol tariqasida tushuncha beradigan bo'lsak hayvonlar yoki o'simliklar sistemikasi yuzasidan dars o'tayotgan o'qituvchi sistematik jadvalni soddaroq qilib chizgan holda o'quvchilarga osonroq tushuntiradi.

Biologiya tarmoqlarini tasviriy san'at bilan bog'laydigan bo'lsak botanika bo'limi ya'ni o'simliklar haqidagi barcha mavzularda qo'l keladi. Masalan, ildiz tizimlari to'g'risidagi mavzuda o'q ildizli, popuk ildizli, qo'shimcha ildizli hamda ildizmevali o'simliklarni bir nechta rasmlarini chizish orqali o'quvchilarda ildiz tizimlari haqida tushunchalar hosil bo'ladi. Hayvonlarga hamda odam va uning salomatligiga bog'liq mavzularni o'tishda ham tasviriy vositalardan foydalanish o'quvchilarga tushunarliroq dars jarayonini tashkillashda hamda dars samaradorligini oshirishda yordam beradi.

STEAM yondashuvida o'qituvchilar ham bevosita dars jarayonida faol bo'lishi lozim. San'at yo'nalishini tashkil etishda ham tabiiy fan o'qituvchilari dars jarayoniga qo'l mehnati bilan tayyorlangan rasmlar bilan tashrif buyurishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Barchamizga ma'lumki darsliklarda nash etilgan rasmlar mavjud va bu rasmlarning aksariyati o'qituvchilar tomonidan o'quvchilarga uyda chizib kelish uchun topshiriq sifatida beriladi. Aynan shu topshiriq sifatida beriladigan rasmlar bitta oldinga dars jarayonida o'qituvchi tomonidan qo'lda chizilgan holda tayyorlanib, vazifa berish vaqtida o'quvchilarga ko'rsatilsa o'quvchilarda tushuncha nisbatan mukammalroq hosil bo'ladi. Masalan, vazifa sifatida sachratqi hamda qoqio't o'simligini chizish beriladigan bo'lsa o'qituvchi chizgan rasm orqali o'quvchilarda birinchi o'rinda o'simlikni qismlarini qanday tasvirlash haqida tushuncha uyg'onadigan bo'lsa, ikkinchi o'rinda ushbu topshiriqning qiyinligi haqidagi fikrlari yo'qoladi, o'quvchilarda estetik zavq va qiziqish uyg'onadi.

Art ya'ni san'atdan turli xil metodlar tayyorlashda ham foydalanilsa juda yaxshi natijalarga erishiladi. Chunki qo'l mehnati bilan tayyorlangan, rang-barang metodlar o'quvchilarni dars jarayoniga jalb qilishda qisman bo'lsada yordam beradi.

Barchamizga ma'lumki hozirda biz axborot asrida yashamoqdamiz. Ko'p ma'lumotlarni televidiniya, internet manbaalari orqali olamiz. Biz qatori yosh bolalar ham teleekranlarda namoyish etilayotgan multdasturlarni tomosha qiladilar va ularni yaxshi eslab qoladilar. Metodlar tayyorlashda multdastur qahramonlaridan foydalanish o'quvchilarni metodlarni bjarishga bevosita undaydi. Quyida o'zim tayyorlagan metod haqida ma'lumot berib o'tmoqchiman.

"Jumanji" o'yinini barchamiz yaxshi bilamiz, hattoki bu o'yinni ko'pchiligimiz o'ynaganmiz ham. Bu nom ostida kinofilmlar ham tasvirga olingan. Bu o'yinning asosiy mazmuni yo'lda uchragan topshiriqlarni bajargan holda manzilga yetib borishdan iborat. Men tayyorlagan metodik o'yin ham jumanji o'yini asosida tayyorlangan. Bunda o'yin qahramonlari sifatida mult dastur qahramonlaridan foydalandim. Chunki bu orqali kichik sinfdagi o'quvchilarni dars jarayoniga jalb qilish birmuncha osonlashadi. "Muzyurak" multfilmidagi qahramonlardan oladigan bo'lsak Anna qishni to'xtatish uchun opasi Elzani oldiga borgan manzarni yoki "Momiqvoy laqabli ayiqcha va uning do'stlari" multfilmida momiqvoy asal to'ldirilgan xumni qidirib ketayotgan manzaralarni ushbu o'yinimizda tasvirlashimiz

mumkin.O'yin quyidagicha shartli belgilar bilan ifodalangan shartlardan iborat bo'ladi:

1-ilova.

?	O'quvchilar berilgan savolga javob beradilar.
!	O'quvchilar fanga doir qiziqarli ma'lumotlar aytishadi.
?!	O'quvchilar tomonidan savol beriladi.
	O'quvchilar yana bir gal o'ynash huquqiga ega bo'ladilar.
	O'quvchilar bir gal navbat o'tkazadilar.
	O'quvchilar o'yinni boshidan boshlaydilar.
➡	O'quvchilar ko'rsatgich bo'yicha harakatlanadi.

O'yin olib borish jarayonida narda toshi yoki boshqa shunga o'xshash buyumdan foydalanishimiz mumkin.Misol tariqasida narda toshini oladigan bo'lsak o'quvchilar narda toshini otadilar va nechchi soni tushsa shuncha yuradilar.O'yin shu tartibda davom etadi.O'yin davomida belgilangan shartlar bajariladi.Bajara olmagan ishtirokchi-o'quvchi bir gal navbatini o'tkazadi.O'yin shu tartibda davom etib,manzilga birinchi yetib kelgan ishtirokchi o'yin g'olibi hisoblanadi.

O'yinda belgilangan qoidalarni izohlaydigan bo'lsak asosiy qizil, sariq hamda sabzirang bilan belgilangan shartlarni bajarish orqali birinchi o'rinda o'quvchilarning bilim darajasi shu orqali baxolanada va nutqi ravon,mustaqil fikrlash qobiliyati yanada rivojlanadi.

O'qituvchi nafaqat pedagog balki, o'z o'rnida psixolog, o'z o'rnida ota-ona bo'la olishi lozim.Hamda bilim berishdan tashqari hayot sinovlariga ham o'quvchilarni tayyorlab borishda o'qituvchilarning roli katta.Yashil,qora hamda siyohrangda berilgan shartlar ham o'quvchilarni muvaffaqiyat hamda mag'lubiyatga tayyorlab,u jarayonda hech qanday tushkunlikka tushmasligi haqida hamda yana takror urinib ko'rishini o'rgatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Asqarova O.M. Pedagogika: Oliy o'quv yurtlari uchun darslik / O.M. Asqarova, M. Xayitboyev, V.S. Nishonov; O'zR oliy va o'rta-maxsus ta'lim vazirligi. – T.: "Talqin"+
2. Ф.Ўринова, Ж.Отажонов. К проблеме ситуационно-позитционного обучение педагогов системы повышения квалификации.«Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук». Журнал научных публикаций. Москва. 2015.
3. Didactic games in preschool educational system. F.U. Urinova- Проблемы современной науки и образования, 2020-elibraru.ru
4. F.U.Urinova. The development logical thinking of primary school students in mathematics. European journal of Research and Reflection in Educational Sciences. Vol.8/No 2, 2020.Part II/ISSN. 2056-5852. AQSH
5. Дубровина И.В. "Зависимость развития познавательных интересов детей от характера их подготовки к школе", "Некоторые актуальные психолого-педагогические проблемы воспитания и воспитывающего обучения". М., 1976.
6. Urinova Feruza Uljaevna, Sharofutdinova Rano Shavkatovna. DOI: 10.5958/2249-7137.2021.00358.X "Development and education of preschool children" ACADEMICIA. An International Multidisciplinary Research Journal. (Double Blind Refereed & Peer Reviewed Journal).ISSN: 2249-7137 Vol. 11, Issue 2, February 2021.